

Farmakogenetik tekshiruvi (Dori vositalari uchun gen tekshiruvi)

Ushbu hujjatda “siz” va “sizning” soʻzlari katta yoshli bemorni yoki bemor bolaning ota-onasi yoki qonuniy vakillarini anglatishi mumkin.

Genlar nima?

Genlar bizga ota-onamizdan meros boʻlib oʻtadigan DNK boʻlaklaridir. Genlar tanalarimizning qanday koʻrinishi va ishlashini belgilaydigan koʻrsatmalarni beradi.

Dori-darmonlarga genlarning nima aloqasi bor?

Ayrim genlar dorilarning organizmda ishlash tarziga taʼsir qiladi. Odamlar guruhini taqqoslashda har bir genning tuzilishida biroz farq boʻlishi mumkin. Bu farqlar odamlarning doriga boʻlgan munosabatiga taʼsir qilishi mumkin.

- Ayrim gen farqlari organizmning ayrim dorilardan xalos boʻlishini qiyinlashtirishi mumkin. Bu shuni anglatishi mumkinki, odatiy dori dozalari ayrim odamlarda kutilmagan nojoʻya taʼsirlarni keltirib chiqarishi mumkin.
- Ayrim gen farqlari organizmning dori vositasini juda tez qabul qilishiga sabab boʻlishi mumkin. Bu normal dozalar ham taʼsir qilmasligini anglatishi mumkin. Bunday odamga kattaroq dozada dori kerak boʻlishi mumkin.
- Ayrim gen farqlari ayrim dorilarni organizmda ishlashiga umuman yoʻl qoʻymaydi. Bu boshqa dori yaxshiroq taʼsir qilishini anglatishi mumkin.

Bunday gen tekshiruvi nima deb ataladi?

Siz uchun koʻrib chiqilayotgan gen testi farmakogenetik test deb ataladi. Buni PGx tekshiruvi deb ham atashadi.

PGx testi majburiy talab qilinadimi?

Aksariyat PGx tekshiruvlari ixtiyoriy hisoblanadi. Ayrim saraton yoki yuqumli kasalliklarga chalingan odamlar uchun moʻljallangan yangi dorilar mavjud. Dori taʼsir qilishini bilish uchun oʻsimta yoki odam qonining PGx tekshiruvi kerak boʻlishi mumkin. Aksariyat hollarda siz PGx tekshiruviz standart dori dozalari bilan davolanishingiz mumkin. Shifokoringiz nima uchun sizga PGx tekshiruvini tavsiya qilayotganini anglashingizga ishonch hosil qiling.

Farmakogenetik tekshiruvi *davomi...*

Nima uchun PGx tekshiruvini xohlashingiz mumkin?

Sizga dori berishdan oldin yoki keyin PGx tekshiruvini o'tkazish mumkin.

Dori berishdan oldin:

PGx tekshiruvi shifokoringizga sizga eng yaxshi ta'sir qiladigan dori va dozani tanlashga yordam berishi mumkin.

Dori berishdan keyin:

PGx tekshiruvi shifokorga dori bilan bog'liq muammolaringiz sababini tushunishga yordam berishi mumkin. Agar boshqa doza yoki boshqa dorini sinab ko'rish kerak bo'lsa, tekshiruv shifokoringizga ham yordam berishi mumkin.

PGx tekshiruvining qanday afzalliklari bor?

- Tekshiruv dori sizga kutilganidek yordam berishi ehtimolini oshirishi mumkin.
- Tekshiruv dorining jiddiy nojo'ya ta'sirlari ehtimolini kamaytirishi mumkin.
- Dori uchun PGx tekshiruvini hayotda faqat bir marta o'tkazish kerak bo'lishi mumkin.
- Bugun tekshirilgan gen(lar) kelajakda sizga kerak bo'ladigan dorilar uchun muhim bo'lishi mumkin.

PGx tekshiruvi uchun qanday cheklovlar mavjud?

- Tekshiruv faqat umumiy gen farqlarini ko'rib chiqadi. Bu shuni anglatadiki, agar tekshiruv umumiy gen farqlarini topmasa, sizda bir yoki bir nechta kam uchraydigan gen farqlari bo'lishi mumkin. Tekshiruv doriga qanday munosabatda bo'lishingizga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan kam uchraydigan gen farqlarini aniqlamaydi.
- Genlardagi farqlar doriga bo'lgan munosabatingizga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ko'plab omillardan biridir. Boshqa omillarga yosh, vazn, boshqa dorilar va kasalliklar misol bo'la oladi. Shifokoringiz PGx sinovi natijalari bilan birga bu omillarni ham hisobga olishi kerak bo'ladi.

PGx tekshiruvi uchun nima kerak?

PGx tekshiruvi uchun taxminan 1/2 choy qoshiq qoningiz kerak bo'ladi. Shuningdek, testni lunjning ichki qismidan yoki so'lakdan olingan namunalarda ham o'tkazish mumkin. Lunjdan namuna olish uchun maxsus cho'tkalar kerak. So'lak olish uchun maxsus shimgichlar kerak.

Farmakogenetik tekshiruvi *davomi...*

PGx tekshiruvi haqida yana biror narsa bilishim kerakmi?

Kelajakda bu umumiy gen farqlarining ayrimlari boshqa tibbiy holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tekshiruv natijalari oilaning boshqa a'zolari uchun muhim bo'lishi mumkin. Biologik aka-ukalar, opa-singillar va otalarni bir yoki bir nechta bir xil tekshirilgan genlarga ega bo'lishi mumkin.

PGx tekshiruvining narxi qancha?

PGx tekshiruvining narxi ko'plab omillarga bog'liq. Sug'urta kompaniyalari odatda tibbiy boshqaruvga yo'naltirilgan genetik tekshiruvlar xarajatlarini qoplaydilar. Sug'urta kompaniyalari qoplash siyosatiga ko'ra farq qiladi. Ular PGx tekshiruvi uchun xarajatlarni qoplashlari haqida bevosita ularning o'zlaridan so'rang.

Tekshiruv natijalarini olish uchun qancha vaqt ketadi?

Tekshiruv natijalari qondan, lunj namunasi yoki so'lakdan olinishiga qarab 2-4 ish kuni ketishi mumkin.

Tekshiruv natijalarini qanday bilib olaman?

Tekshiruv natijalari tibbiy kartangizda aks etadi. Shifokor yoki hamshira laboratoriyadan hisobot olgach, tekshiruv natijalarini siz bilan muhokama qiladi. Hisobotda shifokoringiz tekshiruv natijalari asosida dori-darmoningizni qanday o'zgartirishi mumkinligi tasvirlanadi.

Gen natijasi tibbiy kartada aks etadimi?

Ha. Cincinnati Children's tibbiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun tibbiy sug'urtaning ko'chirilishi va javobgarligi to'g'risidagi qonun (Health Insurance Portability and Accountability Act, HIPAA) ko'rsatmalariga qat'iy amal qiladi.

Namunalarim taqdiri nima bo'ladi?

Kelajakda tekshiruvlar zarur bo'lsa, DNK namunangiz ikki yilgacha saqlanishi mumkin. Agar tadqiqot uchun ruxsat bermagan bo'lsangiz, namunangiz ham, DNK ham tadqiqot maqsadlarida ishlatilmaydi.

Bu tekshiruvga oid qo'shimcha savollar uchun GPSconsult@cchmc.org manziliga email yuboring.